

TALABALARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ramazonov Jahangir Djalolovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Odilov Muhammadjon Usmonjon o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalari va pedagoglarning innovatsion faoliyatining psixologik xususiyatlar haqida fikr mulohazalar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsiya, navatsiya, texnologiya, komplekslik, tizimlilik, innovatsion muhit, innovatsion pedagogik faoliyat, optimallik.*

Talabalarning psixologik-pedagogik va metodik tayyorgarligi ularning olgan nazariy bilimlarini amaliy ko'nikma va malakalarga aylantira olishi bilan belgilanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan pedagogik amaliyotlarning mazmunli o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy vositasi barcha turdagi pedagogik amaliyot hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash vositasi sifatida pedagogik voqelikning ko'p o'lchovli hodisasidir. Har bir jamiyatning istiqboli ilm-fan, texnika, ta'lim taraqqiyoti bilan barkamol kadrlarni voyaga yetkazish bilan bog'liqdir. Pedagogik amaliyot bakalavr yo'nalishdagi talabalarning oliy o'quv yurtida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining izchil davomi sanalib, bakalavriyat yo'nalishi bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mazkur bilim, ko'nikma, malakalarni bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llash imkoniyatini beradi.

Pedagogik amaliyot tashkilotlar, ta'lim muassasasida (maktabdan tashqari muassasalari, mahalla, maxsus maktablar, mehribonlik uylarida, oromgohlar) bo'lajak o'qituvchilarning o'z pedagogik mahoratlarini takomillashtirish va pedagogik tajribani o'zlashtirishga qaratilgan jarayondir.

Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni tashkilotlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, oromgohlarda o'quv, tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Talabalar bilimlarini amaliyotda qo'llanishi, hayotga tatbiq etishni o'rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kelsalar, ularning olgan bilimlari qat'iy

ishonchga aylanadi. Amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik xislatlari shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalashning kuchayishiga ko'mak beradi.

Pedagogik amaliyotning birinchi kunidayoq talabalarning asosiy ijtimoiy vazifasi, ya'ni har tomonlama rivojlangan yetuk insonni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va faol mehnatga tayyorlash talab etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy xarakterga bo'lishi lozim.

Talabalar o'z kasbiy majburiyatlarini ijodiy bajarsa, pedagogik topshiriqlarni hal qilishining samarali shakl va usullarini qidirib topsa, o'zi tanlagan kasbiga munosabati, pedagogik faoliyatga qiziqishi rivojlanib, kasbiy mahorati oshib boradi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda pedagogik amaliyot ilg'or ish tajribalarini o'rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot – bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv-pedagogik jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Pedagogik amaliyot namunaviy va ishchi o'quv rejasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyotning mazmumni amaliyot turiga qarab, kafedrada ishlab chiqilgan dasturiga mos bo'ladi. Amaliyot o'quv mashg'ulotlaridan ajralgan holda tashkil etiladi. Pedagogik amaliyotni talabalar oliy ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzilgan tashkilotlarda o'taydilar. Ayrim hollarda bitiruvchi kurs talabalari o'zi ishlashni rejalashtirayotgan ta'lim muassasalarida faol pedagogik amaliyotni o'tashlari mumkin. Talabalarning pedagogik amaliyotni o'tash joylari oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan chiqarilgan buyruq asosida tashkil etiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyatiga yangilik kiritishni xolisona nazarda tutuvchi pedagogik texnologiya, akmeologiya, konfliktologiya kabi pedagogik bilimlarning yangi tarmoqlarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. Ushbu pedagogik bilimlarning yangi ko'rinishlari pedagogika fani yutuqlari hisoblanib, amaliyot davrida talaba ular bilan to'qnashadi.

Agar talabalar bilimlarini amaliyotda qo'llash, hayotga tatbiq etishni o'rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kelsalar, ularning olgan bilimlari qat'iy ishonchga aylanadi. Amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy-pedagogik xislatlari shakllanishida o'z-o'zini tarbiyalashning kuchayishi ko'mak beradi. Pedagogik amaliyotning birinchi kunidayoq talabalardan asosiy ijtimoiy vazifa, ayni har tomonlama rivojlangan yetuk insonni shakllantirish, yosh avlodni hayotga va faol mehnatga tayyorlash talab etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik amaliyot davrida talabalarning ishi ijodiy (ijodiy) xarakterga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda pedagogik amaliyot ilg'or ish tajribalarini o'rganish maskani mahorat maktabi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun pedagogik amaliyot ma'lum tizim asosida tashkil qilinib, kursdan-kursga o'tishi bilan unga bo'lgan talab ortib boradi. Bo'lajak o'qituvchi innovatsion pedagogik faoliyatiga bo'lgan yuksak talablar zaruriy ravishda pedagogik amaliyotning izchil, ilmiy asoslangan tizimini yaratishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda o'zining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-yuridik ifodasini topdi. Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor berib, ularda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'z kasbini mukammal o'rganishi bilan birga yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ularni shakllantirish nihoyatda muhimdir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, o'zining dastlabki samaralarini bera boshladi. Buning oqibatida respublikamizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Ammo uning kelgusi taraqqiyotining omillarini inobatga olib mutaxassislar tayyorlashni jahon andozalariga moslashtirish, ularni o'z mutaxassisliklari va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini shaxsiy e'tiqodiga aylantirishni taqozo qiladi. Yangi tarixiy sharoitda insonni o'zini takomillashtirmasdan turib, jamiyat oldida turgan murakkab iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini hal qilish mumkin emas. Chunki ularni yechishda inson ongli, aql-zakovati, ijtimoiy faolligi xalq, millat oldidagi mas'uliyatini his qilish muhimdir. Inson va uning ongini, tafakkurini o'zgartirish bilan mustaqil huquqiy demokratik davlatni qurish bir-biriga dialektik bog'liq jarayondir.

O'qituvchining shaxs va mohir kasb sohibi sifatida shakllanishi birdaniga amalga oshmay, ma'lum bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu, eng avvalo, talabaning shu kasbni tanlashi u haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishi yoki shu kasbni sevishi, ikkinchi, oliy o'quv yurtidagi tahsil unda o'rganiladigan majburiy fanlar ijtimoiy-gumanitar, pedagogika-psixologiya fanlarini o'zlashtirishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga talabada kishilar bilan ishlay olish, ularni ma'lum ish-faoliyatga yo'naltirishga doir yutuqlari turli ijtimoiy ishlarni bajarish va ilmiy-tadqiqiy ishlari ilmiy-amaliy konferensiyalarga ma'ruzalar bilan chiqishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga o'qituvchining kasbiy shakllanishida bevosita pedagogik amaliy faoliyat - malakaviy va o'quv-tarbiyaviy amaliyot muhim hisoblanadi. Aynan shu jarayonda ijtimoiy faol o'qituvchini shakllantirish ancha oson kechadi. Chunki bunda egallangan bilimlarni amalda qo'llash, pedagogik faoliyatga layoqati, shaxsiy

jismoniy sifatlarining mos kelish-kelmasligi sinaladi. O'z amaliy faoliyati taxmini asosida o'qituvchi bo'lish uchun qaysi bilimlari yetarli yoki qaysi fanlardan bilimlarini chuqurlashtirish istagi paydo bo'ladi.

Agar talabalar oliy o'quv yurtida nazariy bilim olsalar pedagogik amaliyot jarayonida uni sinaydilar. Nazariy bilim bilan amaliyotni o'zaro integratsiyalab yangi bilimlarni o'rganishga qiziqadilar. O'qituvchining kasbiy va shaxsiy shakllanishida aniq tashkil qilingan pedagogik amaliyot muhim o'rin egallaydi. Pedagogik amaliyot jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni to'g'riligini tekshirish balki, ularni qo'llashga talabaning tayyorligi uni mustaqil ishlashga tayyorlash asosida o'qituvchi ijtimoiy faoliyati va shaxsi bilan chuqur tanishish imkoniyati ochiladi.

Mohir o'qituvchi bo'lish uchun o'z fanini chuqur bilish yetarli emas. Uni boshqalarga o'rgata olish ham juda muhim. O'z fanini har tomonlama chuqur bilishi bilan birga, uning boshqa fanlar bilan uzviy birligini, hozirgi zamon axborot texnologiyalari, huquq, tibbiyot jahon va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida ham bilimga ega bo'lish o'quvchilarning o'qituvchi shaxsi va faniga qiziqishini oshiradi. Demak, o'qituvchining har tomonlama chuqur tayyorgarligi faqat kasbiy ehtiyoj emas, balki uning ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik mahorat bu uzoq izlanish va ijodiy ishlash mahsuli bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosining amaliyotdagi mavjud holatini o'rganish, to'plangan ma'lumotlarni tahlil etish, muayyan xulosalarga kelish va shu asosda muammoning umumiy holatiga baho berishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatni amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish. Ped.fanl. bo'y. fal. dok. diss. avtoref. – T. – 2019. – 48 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
3. Ramazonov, J. (2022). Шахсада Рефлексия Даражаларининг Ўсиб Бориш Динамикасининг Ижтимоий Психологик Хусусиятлари. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 10(10).
4. Ramazonov, J. (2021). Reflexive Mechanism-As the Main Form Of Controlling Students' Psychological Conditions. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 7(7).